e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/6e1nfe96

TA'LIM JARAYONIDA FIKR VA NUTQNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Sharofova Nilufar Ilhom qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant.
e-mail: sharofova_nilufar@buxdpi.uz **ORCID**: https://orcid.org/0009-0004-1499-4242

Annotatsiya.
Fikr shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Uning nutq orqali izchil va mantiqiy ifodalanishi nutqiy kompetensiyaning muhim ko'rsatkichidir. O'quvchilarda fikrlash va nutq uyg'unligini rivojlantirishda pedagog va ota-onalarning hamkorligi, shuningdek, interfaol, ijodiy va muammoli topshiriqlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.
Kalit so'zlar: fikr, fikr tarbiyasi, nutq, tasavvur, tanqidiy fikrlash, qobiliyat, oila va maktab hamkorligi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЫШЛЕНИЯ И РЕЧИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Шарофова Нилуфар Илхом кизи
Бухарский государственный педагогический институт, докторант базовой докторантуры (PhD).

Аннотация.
Мышление играет важную роль в психологическом и социальном развитии личности. Его последовательное и логичное выражение посредством речи является важным показателем речевой компетенции. В развитии взаимосвязи мышления и речи у учащихся большое значение имеют сотрудничество педагогов и родителей, а также использование интерактивных, творческих и проблемных заданий.
Ключевые слова: мышление, развитие мышления, речь, воображение, критическое мышление, способности, сотрудничество семьи и школы.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING THINKING AND SPEECH IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Sharofova Nilufar Ilhom qizi
Bukhara State Pedagogical Institute, PhD Student.

Abstract.
Thinking plays an important role in the psychological and social development of an individual. Its coherent and logical expression through speech is an important indicator of communicative competence. Cooperation between teachers and parents, as well as the use of interactive, creative, and problem-solving tasks, is essential for developing the integration of thinking and speech among students.
Keywords: thinking, development of thinking, speech, imagination, critical thinking, abilities, family-school cooperation.

Kirish. Fikr inson ongida voqelikni anglash, idrok etish, tahlil qilish va umumlashtirish jarayonlari natijasida shakllanuvchi kognitiv hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Nutq esa mazkur fikriy mazmunning verbalizatsiyasi, ya'ni til birliklari vositasida moddiy shaklga keltirilishi, tizimlashtirilishi va kommunikativ makonda ifodalanishini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, fikr va nutq insonning tafakkuri, ongi, tili va kommunikativ faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab psixolingvistik jarayonlar majmuini tashkil etadi.

Fikr tilda voqelashadi, tilda mavjud bo'ladi. Ongingizda paydo bo'ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat so'zlar vositasi orqali voqe bo'ladi [4; 42-b.].

Fikr dastlab inson ongida mavhum mazmun, tasavvur, tushuncha yoki hukm shaklida vujudga keladi. Ushbu mazmunning nutq orqali ifodalanishi jarayonida inson o'z fikrini muayyan leksik, grammatik, sintaktik va semantik birliklar yordamida tartibga soladi. Nutq tilning til qobiliyati asosida ayrim shaxs tomonidan ma'lum bir kommunikatsiya (xabar berish) maqsadi uchun ishga solinishi yoki qo'llanishi natijasidir [3; 8–9-b.].

Demak, nutq fikrning oddiy tashqi ifodasi emas, balki uning shakllanishi, aniqlashuvi, mantiqiy izchillikka kelishi va kommunikativ jihatdan qayta tashkil etilishida faol ishtirok etuvchi vositadir.

Nutqiy faoliyat jarayonida inson o'z fikrini so'zlar orqali ifodalashga intilar ekan, avvalo, fikrning mazmuniy tuzilishini aniqlashtiradi, asosiy va ikkilamchi jihatlarni farqlaydi, sabab-oqibat munosabatlarini belgilaydi hamda fikrlar o'rtasidagi mantiqiy-semantik aloqadorlikni ta'minlaydi. Shu sababli nutq tafakkurning nafaqat kommunikativ, balki kognitiv-regulyativ mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, shaxsning rivojlanish jarayonida nutq va tafakkurning o'zaro ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Inson o'z fikrini og'zaki yoki yozma shaklda ifodalash orqali uni qayta ko'rib chiqadi, tahlil qiladi, baholaydi va takomillashtiradi. Bu jarayon metakognitiv faoliyat, ya'ni shaxsning o'z fikrlash jarayonini anglash va nazorat qilish

qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, nutq fikrni ifodalash vositasi bo‘lish bilan birga, uni strukturallashtiruvchi, faollashtiruvchi va boshqaruvchi kognitiv instrument vazifasini ham bajaradi.

Shu jihatdan qaralganda, fikr va nutq o‘rtasidagi munosabatni faqat “mazmun va shakl” munosabati sifatida talqin qilish yetarli emas. Ular o‘zaro dinamik, dialektik va funksional aloqadorlik asosida rivojlanadi. Fikr nutqqa mazmun bersa, nutq fikrning konkretlashuvi va takomillashuviga zamin yaratadi. Natijada insonning kommunikativ kompetensiyasi, mantiqiy tafakkuri, nutqiy madaniyati va intellektual salohiyati bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlar sifatida shakllanadi.

Shu bois ta’lim-tarbiya jarayonida fikr va nutqni rivojlantirishni alohida-alohida emas, balki integrativ yondashuv asosida tashkil etish muhimdir. O‘quvchining mustaqil fikrlashi, o‘z nuqtayi nazarini asoslay olishi, dalillar keltirishi, mantiqiy xulosa chiqarishi va mazkur fikrlarni izchil nutq orqali ifodalashi uning nafaqat nutqiy, balki kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Demak, fikr va nutq tarbiyasi shaxsning intellektual hamda kommunikativ kamolotini ta’minlovchi o‘zaro integratsiyalashgan pedagogik jarayon sifatida qaralishi lozim.

Fikr tarbiyasi — shaxsda mustaqil, mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. U o‘quvchilarning bilimlarni tahlil qilish, voqea-hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘liqliklarni aniqlash, asoslangan xulosalar chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fikr tarbiyasini amalga oshirishning samarali mexanizmlari sifatida bilim va dunyoqarashni kengaytirish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, muammoli ta’limdan foydalanish, munozara va dialogik faoliyatni tashkil etish, ijodiy topshiriqlarni qo‘llash, axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish hamda refleksiyani yo‘lga qo‘yishni ko‘rsatish mumkin. Mazkur mexanizmlar o‘quvchining bilish faolligini oshirib, mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash va muammolarga maqbul yechim topish imkoniyatini kengaytiradi.

Maktab darsliklarida, ayniqsa, ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklaridagi har bir matn o‘quvchini fikrlashga, munosabat bildirishga chorlaydi. Masalan, 2-sinf o‘qish savodxonligi darsligidagi “Ustozlar” she’rini olaylik. She’r yakunlangach, o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. She’rda ustozlar haqida nimalar deyilgan?
2. Ayting-chi, nima uchun ustozlar nur kabi porlab yashaydi?
3. O‘qituvchilar insonlar hayotida qanday o‘rin egallaydi? Fikringizni izohlang [1; 23–24-b.].

Ushbu savollar, bir tomondan, o‘quvchilarning she’r mazmunini qay darajada anglaganliklarini aniqlash uchun berilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, ularni erkin fikrlashga, o‘z fikrlarini nutq orqali ifodalashga undaydi.

3-sinf o‘qish savodxonligi darsligida “Filipok” (Lev Tolstoy) hikoyasi keltirilgan. Hikoyada maktab yoshiga yetmagan bolaning akalariga ergashib maktabga bormoqchi bo‘lgani, uyidagilar ruxsat bermagach, ota-onasi ishga ketganidan va buvisi uxlab qolganidan foydalanib, maktabga borgani hikoya qilinadi. O‘quvchilar uning kichkina bo‘lsa ham maktabga kelishni xohlashini aytishgach, ustoz uni partaga o‘tqazib, o‘qitib ko‘radi va u ancha-muncha o‘qishni ham bilishini aniqlaydi. “Sizga o‘qishni kim o‘rgatdi?” degan savolga Filipok “Kotyushka” (Filipokning akasi) deb javob beradi. Shundan so‘ng u ham boshqa bolalarga qo‘shilib maktabga qatnay boshlaydi, deyiladi hikoyada. Hikoya asosida o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Filipok kim? U qanday bola?
2. Sizningcha, Filipok to‘g‘ri ish qildimi?
3. Nima deb o‘ylaysiz, bilim olish qanchalik muhim?
4. Bilim olish uchun nimalar zarur deb o‘ylaysiz? [2; 68–70-b.]

Savollarga o‘quvchilar o‘z dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda, so‘z boyliklaridan foydalanib javob beradilar. Ayniqsa, 3–4-savollar bolalarni o‘ylashga, fikrlashga va to‘g‘ri nutq tuzishga undaydi.

O‘quvchilarning fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirishda interfaol, ijodiy hamda muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, “Gapni davom ettir” topshirig‘i o‘quvchilarning tasavvurini kengaytirish, mustaqil fikrlashini faollashtirish va bog‘lanishli nutqini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu topshiriqni bajarishda o‘qituvchi o‘quvchilarga “Agar men qush bo‘lganimda…”, “Bahor kelganda…”, “Men sehrli qalam topsam…”, “Agar yomg‘ir yog‘masa…” kabi gaplarning boshlang‘ich qismlarini taqdim etadi. O‘quvchilar esa mazkur gaplarni o‘z tasavvurlari va hayotiy tajribalariga tayangan holda mustaqil davom ettiradilar. Natijada ularda fikrni mazmunan izchil bayon qilish, so‘zlardan o‘rinli foydalanish va ijodiy yondashish ko‘nikmalari rivojlanadi.

O‘quvchilarning o‘z fikrlarini asoslash va muloqotga kirishish qobiliyatini shakllantirishda “Menimcha…” topshirig‘idan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Mazkur topshiriq doirasida o‘quvchilarga “Maktabda uy vazifasi bo‘lishi kerakmi?” kabi muammoli savollar beriladi. Ular o‘z munosabatlarini bildiradilar, fikrlarini tegishli dalillar bilan asoslashga harakat qiladilar hamda sinfdoshlarining qarashlarini tinglaydilar. Ushbu faoliyat o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish, o‘z nuqtayi nazarini ifodalash va o‘zaro muloqot madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Mantiqiy tafakkur va fikrni izchil bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida “Voqealarni tartibga sol” topshirig‘ini qo‘llash mumkin. Bunda o‘quvchilarga muayyan jarayon yoki voqeaning turli bosqichlarini aks ettiruvchi rasmlar taqdim etiladi. Masalan, urug‘ ekilishi, niholning unib chiqishi va gulning ochilishi tasvirlangan rasmlar ketma-ketlikda joylashtiriladi. O‘quvchilar voqealar izchilligini aniqlab, ularni og‘zaki ravishda sharhlaydilar. Ushbu topshiriq sabab-oqibat munosabatlarini anglash, voqealar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash va fikrni izchil bayon etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, “Men kimman?” topshirig‘i o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirish, predmet va

ISSN 3060-5059 (Online)

hodisalarning muhim belgilarini ajratish hamda ularni tavsiflash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Topshiriq davomida bir o‘quvchi muayyan predmetning xususiyatlarini ta’riflaydi, boshqa o‘quvchilar esa uning nomini aniqlaydilar. Masalan: “Men maktabda ishlatilaman. Ichimga kitob va daftar solinadi. Men kimman?” Ushbu savolga “maktab sumkasi” tarzida javob beriladi. Mashq o‘quvchilarning kuzatuvchanligi, tahlil qilish qobiliyati va nutqiy faolligini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, fikr tarbiyasida pedagogning shaxsiy namunasi hamda oila va ta’lim muassasasi hamkorligi muhim omillar hisoblanadi. O‘qituvchining tahliliy fikrlashi, o‘quvchi fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi va erkin muloqot muhitini yaratishi mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi. Oiladagi sog‘lom intellektual muhit esa mazkur jarayonning uzluksizligini ta’minlaydi.

Demak, fikr tarbiyasini samarali tashkil etish o‘zaro bog‘liq pedagogik mexanizmlarning tizimli qo‘llanilishini talab etadi. Ushbu jarayon natijasida mustaqil fikrlaydigan, tanqidiy va ijodiy tafakkurga ega, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilishga qodir shaxsni shakllantirishga erishiladi.

Fikr tarbiyasi shaxsning mustaqil, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim pedagogik jarayondir. Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida inson tafakkuri, ilm-ma’rifat va aqliy kamolot masalalariga alohida e’tibor berganlar.

Abu Nasr Forobiy inson kamolotida aql, bilim va tafakkurning muhim o‘rin tutishini ta’kidlagan. Abu Ali ibn Sino ta’lim jarayonida bolaning yoshi va individual qobiliyatlarini hisobga olish, uning aqliy faoliyatini rivojlantirish zarurligini ilgari surgan. Abu Rayhon Beruniy bilimni egallashda kuzatish, tajriba va tahlilning ahamiyatini yuksak baholagan. Alisher Navoiy ilm, aql va ma’naviy-axloqiy tarbiyani inson kamolotining muhim omillari sifatida talqin qilgan. Abdulla Avloniy esa tarbiyaning shaxs va jamiyat hayotidagi beqiyos ahamiyatini ta’kidlab, uni inson kamolotining asosiy sharti sifatida baholagan.

Umuman, mutafakkirlar qarashlariga ko‘ra, fikr tarbiyasi shaxsni mustaqil fikrlash, tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va ongli qaror qabul qilishga yo‘naltiruvchi muhim ta’limiy-tarbiyaviy jarayondir.

Fikr va nutqning o‘zaro munosabati psixologiya, tilshunoslik va pedagogika fanlarida muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Mazkur masala qator olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

L. S. Vygotskiy fikrlash va nutqni o‘zaro uzviy bog‘liq psixologik jarayonlar sifatida talqin etadi. Uning nazariyasiga ko‘ra, nutq inson tafakkurining shakllanishi va rivojlanishida muhim vosita bo‘lib, tashqi nutqning ichki nutqqa aylanishi tafakkur jarayonining takomillashuvini ta’minlaydi.

A. R. Luriya nutqning kognitiv va regulyativ funksiyalarini alohida ta’kidlab, uni inson faoliyatini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilishning muhim mexanizmi sifatida baholaydi. Shu jihatdan nutq tafakkur bilan bir qatorda inson xatti-harakatlarini boshqaruvchi psixologik vosita hisoblanadi.

J. Piaje nutq va tafakkur munosabatini bolaning kognitiv rivojlanishi bilan bog‘laydi. Uning qarashlarida bolaning nutqiy rivojlanishi intellektual va mantiqiy tafakkurning shakllanishi bilan bevosita aloqador jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

A. N. Leontyev tafakkur va nutqni faoliyat nazariyasi doirasida tadqiq etib, ularning shakllanishini insonning amaliy faoliyati bilan bog‘laydi. Uning yondashuvida nutq fikrni shakllantirish, ifodalash va kommunikativ jihatdan uzatishning muhim vositasidir.

S. L. Rubinshteyn tafakkur va nutqning uzviy birligi tamoyiliga asoslanadi. Uning konsepsiyasida tafakkur voqelikni anglash jarayoni, nutq esa anglangan mazmunning ijtimoiy-kommunikativ shaklda ifodalanishini ta’minlovchi vosita sifatida qaraladi.

Umuman olganda, mazkur olimlarning ilmiy qarashlari fikr va nutqni o‘zaro dialektik, funksional va kognitiv aloqadorlikdagi jarayonlar sifatida baholash imkonini beradi. Fikr nutqqa mazmun bersa, nutq fikrning shakllanishi, aniqlashuvi va kommunikativ ifodasini ta’minlaydi. Shu sababli fikr va nutqni rivojlantirish shaxsning tafakkuriy, kommunikativ va intellektual kompetensiyalarini shakllantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aydarova U. B. O‘qish savodxonligi. 2-sinf. II qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 81 b. – URL: https://infoedu.uz/darsliklar/2/2-sinf-oqish-savodxonligi-2-qism. Infoedu
2. Toirova M. E. O‘qish savodxonligi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. I qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 80 b. – URL (PDF): https://zokirjon.com/wp-content/uploads/2025/02/3-sinf-Oqish-savodxonligi-1-qism-darslik-N.pdf. zokirjon.com
3. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993. – 32 b. – (Fan yutuqlari – oliy maktabga. Tilshunoslik, № 1). – URL (katalog): https://search.worldcat.org/oclc/38736625. WorldCat.org
4. Xolmanova Z. T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007. – 177 b. – URL: https://portal.guldu.uz/?act=resources&id=26586.